

“TASDIQLAYMAN”
“Yangiyo’l-Agro Star” MCHJ
Direktori

“ / ” 07 2025 y.

**“Yangiyo’l-Agro Star” MCHJ ning Yangiyo’l tumani Bunyodkor mahallasi
hududiga zamonaviy issiqxonalar majmuasini yetkazib berish va o‘rnatish
bo‘yicha**

TENDER HUJJATLARI

Toshkent – 2025 yil

MUNDARIJA

- I.** Tender ishtirokchisi uchun yo‘riqnoma.
- II.** Tenderning texnik qismi.
- III.** Tenderning narx qismi.

ELEKTRON TENDER TO'G'RISIDA AXBOROT

Tender predmeti	Issiqxona konstruksiyasini barcha texnik jixozlari bilan xarid qilish
Lotning bo'linuvchanligi	Lot bo'linmaydi
Kim oshdi savdolari o'tkaziladigan davr (oy)	2025 yil iyun oyi
Moliyalash manbai	O'z mablag'lari
Boshlang'ich narxi	4 758 690 000(<i>to'rt milliard yetti yuz elik sakkiz mlion olti yuz to'qson ming</i>) so'm (<i>mahalliy yetkazib beruvchilar uchun</i>); 374 700 (uch yuz yetmush to'rt ming yetti yuz)AQSH dollr (<i>Xorijiy yetkazib beruvchilar uchun</i>)
To'lov shartlari	Ushbu shartnoma bo'yicha tovarlarni etkazib berish bo'yicha to'lovlar quyidagicha amalga oshirilishi kerak: tovar qiymatining 30 foizi oldindan, 65 foizi yukni jo'natish uchun barcha kerakli yuklash hujjatlari taqdim etilgandan keyin, qolgan 5 foizi esa ishga tushirilgandan va ishlab chiqaruvchi tomonidan etkazib berilgan hajmdagi uskunaning ishlashini ta'minlash bo'yicha ishlar to'plamini o'rnatishni nazorat qilgandan keyin. Barcha to'lovlar INCOTERMS 2010 ga asosan amalga oshiriladi.
To'lov valyutasi	<u>Mahalliy yetkazib beruvchilar uchun:</u> O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm. <u>Xorijiy yetkazib beruvchilar uchun:</u> Tender taklifi taqdim etilgan xorijiy valyutada
Yetkazib berish-o'rnatish shartlari va joyi	<u>Mahalliy yetkazib beruvchilar uchun:</u> "Yangiyo'l-Agro Star" MCHJ yuridim manzili: Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbaxor MFY, Sharof Rashidov 1-uy. <u>Xorijiy yetkazib beruvchilar uchun</u> CIP Тошкент ёки DAP Tovar norezident tomonidan O'zbekiston Respublikasi chegarasida bojxona omborigacha yetkazib berilgan va buyurtmachi tomonidan tovarni rasmiylashtirish uchun bojxona to'lovlari to'langan holatda, tovarni rasmiylashtirishda buyurtmachi tomonidan to'lanadi.
Xizmatlar ko'rsatish muddati	Shartnoma tuzilgan sanadan e'tiboran eng ko'pi bilan 60 (Oltmish) kun.
Tender taklifining amal qilish muddati	Takliflarni qabul qilish tugagan paytdan e'tiboran eng kamida 15 (o'n besh) kun.
Tender ishtirokchilariga maxsus talablar	Tenderda ishtirok qilish uchun Ishtirokchi elektron platformadagi e'longa asosan kafolat amal qilish davrida 0.1% miqdorda zakalat puli shaklida taklif ta'minoti kafolatini taqdim qilishi kerak. Ushbu zakalat puli Ishtirokchilarga mazkur platforma shartlariga asosan qaytariladi. Ta'sisichilari bir yuridik va jismoniy shaxslar hisoblangan Ishtirokchilar tenderdan chetlashtiriladi.

	Offshor hududlarda, shuningdek sanksiya ro'yxatlariga kiritilgan boshqa taqiqlangan hududlarda ro'yxatdan o'tkazilgan Ishtirokchi yoki Ishtirokchi banki tenderdan chetlashtiriladi.
Takliflarni berish muddati	Tender takliflari quyidagi saytda e'lon berilgan sanadan e'tiboran 5 (besh) ish kuni mobaynida qabul qilinadi: https://etender.uzex.uz/
Ishchi organ Tender o'tkazilishi bo'yicha tender komissiyasi mas'ul kotibi (aloqa bog'lovchi shaxs)	“Yangiyo'l-Agro Star” MCHJ Tender komissiyasi Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbaxor MFY, Sharof Rashidov 69-uy. A.Ibragimov (99895) 171-76-96

I. TENDER ISHTIROKCHISI UCHUN YO'RIQNOMA

1. Umumiy qoidalar

ming
uchun)

tenderning

- 1.1. Mazkur tender bo'yicha tender hujjatlari (bundan buyon matnda – "tender hujjatlari") O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zRQ-684-sonli Qonuni (bundan buyon matnda – "Qonun"), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 iyuldagi "Investitsiya va infratuzilma loyihalarining loyiha oldi hujjatlari, tender bo'yicha tender hujjatlari, davlat xaridi uchun texnik vazifa va shartnomalar ekspertizasini o'tkazish tartibini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-332-sonli Qarori hamda "Yangiyo'l-Agro Star" MCHJ xaridlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom talablariga asosan ishlab chiqilgan. Tender predmeti: "Yangiyo'l-Agro Star" MCHJ ning texnik topshiriqni ekspirtizaga kiritishda unga texnik topshiriqni kelishish to'grisidagi 4 758 690 000(*to'rt milliard yetti yuz elik sakkiz mlion olti yuz to'qson ming*) so'm. 374 700 (uch yuz yetmush to'rt yetti yuz) AQSH dollar (*Xorijiy yetkazib beruvchilar*

Ishtirokchilar tomonidan taklif qilinadigan narxlar

eng yuqori qiymatidan ko'p bo'lmasligi kerak.

- 1.2 Xarid komissiyasi yig'ilishlari xarid komissiyasi a'zolari ishtirokida elektron shaklda o'tkaziladi. Tender komissiyasi yig'ilishlari videokonferensiya (telekonferensiyalar va h.k.) formatida o'tkazilishi mumkin. Xarid komissiyasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib masofaviy ovoz berishga haqli.
- 1.3 Mazkur tender hujjatlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanilgan:
- avans to'lovi** – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tender tartib-taomillari Buyurtmachisi va Ishtirokchisi tomonidan to'lanadigan, operatorning komissiya yig'imini va Taraflar zakalat pulini o'z ichiga oladigan moliyaviy mablag'lar summasi;
- davlat xaridlari elektron tizimi operatori (bundan buyon matnda – "operator")** – davlat xaridlari sub'ektlariga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan davlat xaridlari elektron tizimlarida tender tartib-taomillari o'tkazilishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan maxsus vakolatli yuridik shaxs;
- shaxsiy kabinet** – maxsus axborot portalida shaxsiy sahifa bo'lib, u orqali davlat xaridlari sub'ektlariga elektron davlat xaridlarida ishtirok qilish, shuningdek kerakli axborotni joylashtirish yoki olish huquqi ta'minlanadi;
- hisob-kitob kliring palatasi** – Ishtirokchilarga elektron xaridlardan foydalanishni ta'minlaydigan, avans to'lovlarini depozitga o'tkazish va hisobga olish orqali shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajaradigan Operatorning tarkibiy bo'linmasi;
- davlat xaridlari elektron tizimi (bundan buyon matnda – "elektron tizim")** – davlat xaridlari sub'ektlarining o'zaro munosabatini, elektron davlat xaridlari jarayonida tender tartib-taomillari o'tkazilishini ta'minlaydigan tashkiliy, axborot va texnik qarorlar dasturiy majmui;

elektron davlat xaridi – davlat xaridlari sub’ektlari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali davlat xaridlarini amalga oshirish shakli;
taklif ta’minoti – buyurtmachining talabiga binoan Ishtirokchi tomonidan garov, kafolat, zakalat puli yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usul shaklida taqdim qilinadigan takliflar va majburiyatlar ijrosi ta’minoti.

2. Elektron tender tashkilotchilari

- 2.1 Buyurtmachi: “Yangiyo’l-Agro Star” MCHJ (bundan buyon matnda – “Buyurtmachi”). “Buyurtmachi” manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Yangiyo’l tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi, 1-uy, “Yangiyo’l-Agro Star” MCHJ Tel.: (99897) 6095362
- 2.2 Tender komissiyasi ishchi organi – “Yangiyo’l-Agro Star” MCHJ. Manzili: Toshkent viloyati, Yangiyo’l tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi, 69-uy; tel.: (998-95) 171-76-94.
- 2.3 Shartnoma egasi: “Yangiyo’l-Agro Star” MCHJ .
- 2.4 Elektron tenderni o‘tkazadigan operator nomi va uning veb-saytiga havola: <https://etender.uzex.uz> Tender Buyurtmachi tomonidan yetti nafar a’zo tarkibida tashkil qilingan tender o‘tkazilishi bo‘yicha Tender komissiyasi (bundan buyon matnda – “Tender komissiyasi”) tomonidan o‘tkaziladi.

3. Elektron tender ishtirokchilari

- 3.1 Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi xarid qilish tartib taomilida davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari yoki norezident bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxslardir.
- 3.2 Ishtirokchi quyidagilarga haqli:
 - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hajmda davlat xaridlari to‘g‘risida axborotdan foydalanish;
 - Buyurtmachiga yoki uning tomonidan jalb qilingan ixtisoslashgan tashkilotga muayyan davlat xaridlarini o‘tkazish tartib-taomillari, talablari va shartlariga doir so‘rovnomalar berish va ular bo‘yicha izohlar olish;
 - Davlat xaridlari sohasida shikoyatlarni ko‘rib chiqish komissiyasiga tender natijalaridan norozi bo‘lib shikoyat arizasi berish;
 - qonun hujjatlariga asosan takliflarga o‘zgartishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish.
- 3.3 Ishtirokchi quyidagi majburiyatlarga ega:
 - davlat xaridlari bo‘yicha qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;
 - tender hujjatlari talablariga muvofiq takliflar va hujjatlarni taqdim qilish va taqdim qilingan axborotning to‘g‘riligi uchun javobgar bo‘lish;
 - tender g‘olibi deb e’tirof qilingan holatda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda Buyurtmachi bilan shartnoma tuzish.Ishtirokchi va uning affillangan shaxsi bir tender lotida ishtirok qilishga haqli emas.

- 3.4 Buyurtmachi bilan manfaatlar to'qnashuviga ega Ishtirokchi davlat xaridlari ishtirokchisi bo'lishi mumkin emas.
- 3.5 Ishtirokchi davlat xaridlari ijrochisi deb e'tirof qilingan taqdirda:
tender savdolari yakunlari bo'yicha g'olib deb rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki kun mobaynida davlat xaridlari maxsus axborot portalida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali bevosita yoki bilvosita 25 foiz yoki undan ko'p aksiyalarga (ulushga) haqiqatdan nazorat qilishga ega bo'lgan o'zining yakuniy manfaatdor shaxslari (benefitsiarlari) to'g'risidagi axborotlarni oshkor qilishlari; o'zlarining veb-saytlarida va maxsus axborot portalida doimiy asosda tender savdolari yakunlari bo'yicha imzolangan shartnoma majburiyatlari bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni joylashtirib borishga majbur.

4. Elektron tenderdan foydalanish huquqi

- 4.1 Buyurtmachilar va Ishtirokchilarga elektron tenderdan foydalanish huquqi ular tomonidan hisob-kitob kliring palatasida o'z shaxsiy hisobvaraqlariga avans to'lovlari to'langanidan so'ng taqdim qilinadi.
- 4.2 Buyurtmachi va Ishtirokchi elektron tenderda o'z ishtirokini elektron raqamli imzodan foydalanib amalga oshiradi. Buyurtmachilar va Ishtirokchilar tomonidan elektron raqamli imzodan foydalanish elektron tizimda tuzilgan shartnomaning haqiqiylikini e'tirof qilish uchun asos hisoblanadi. Bunda, xorijiy Ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-noyabrdagi PQ-430-sonli Qarori 1-bandiga asosan operatorning texnik imkoniyatlari hisobga olingan holda elektron raqamli imzo kalitisiz ishtirok qiladilar.
- 4.3 Operatorning elektron tizimi avtomatik rejimda quyidagilarni amalga oshiradi:
- to'langan avans to'lovi miqdoriga asosan har bir lot bo'yicha elektron xaridlardan foydalanish;
 - elektron xaridlarni o'tkazish;
 - elektron xaridlar natijalari bo'yicha ijrochini belgilash;
 - bitimni ro'yxatdan o'tkazish va shartnoma tuzish.
- 4.4 Ishtirokchilarga foydalanish huquqini berish ular tomonidan portalda Ishtirokchining elektron shakldagi anketa-arizasi to'ldirilishi orqali amalga oshiriladi. Ishtirokchilarga foydalanish huquqini berish ular quyidagi mezonlarga javob bergan holatda amalga oshiriladi:
- shartnoma tuzish qonuniy huquqiga ega bo'lish;
 - soliqlar va yig'imlar to'lovi bo'yicha muddati kechiktirilgan qarzdorlik yo'qligi;
 - ularga nisbatan joriy qilingan bankrotlik tartib-taomillari yo'qligi;
 - Insofsiz ijrochilar yagona reestrda ular to'g'risida yozuvlar yo'qligi.
- Soliq organlari tomonidan berilgan elektron raqamli imzoning mavjudligi Ishtirokchi – O'zbekiston Respublikasi rezidentining shartnoma tuzish qonuniy huquqini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarini identifikatsiyalash elektron davlat xaridlarida ishtirok qilish uchun to'langan avans to'lovlari

asosida amalga oshiriladi.

Ishtirokchi anketa-arizada unga nisbatan joriy qilingan bankrotlik tartib-taomillari yo'qligi, shuningdek soliqlar va yig'imga to'lovi bo'yicha muddati kechiktirilgan qarzdorlik yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

Ishtirokchi tomonidan anketa-ariza to'ldirilganidan so'ng elektron tizim tomonidan Insofsiz ijrochilar yagona reestrda Ishtirokchi to'g'risida yozuvlar yo'qligi faktini aniqlash uchun ushbu reestr ma'lumotlari tekshiriladi.

Operator:

- Ishtirokchilarga hisob-kitob kliring palatasida alohida shaxsiy hisobvaraqlar ochadi;
- Ishtirokchilarga shaxsiy kabinetlar tashkil qiladi.

5. Tenderda ishtirok qilish va taklif ta'minotini taqdim qilish tartibi

- 5.1 Taklifni ta'minlash usuli, shu jumladan tender ishtirokchisi taklifining qaytarib olinmasligini kafolatlaydigan avans to'lovi miqdori, uni to'lash va qaytarish tartibi elektron davlat xaridlari tartib-taomillarini tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlarga asosan belgilanadi. Taklifning ta'minot usuli, shu jumladan tender ishtirokchisining kelishilgan muddat davrida o'z taklifini qaytarib olinmasligiga kafolat beruvchi 3 % pul zakalatini kiritish va qaytarib olish tartibi hamda miqdori elektron davlat xaridlari tartib-taomillarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

**Ishtirokchi savdolarini o'tkazish vaqtida qatnashishdan bosh tortgan taqdirda, unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Buyurmachi tomonidan operatorga taqdim etilgan ma'lumotga asosan, zakalat summasi buyurtmachining hisob raqamiga operator tomonidan yuboriladi.*

- 5.2 Ishtirokchi elektron tenderda ishtirok qilish uchun:
- **id.uzex.uz** saytida ro'yxatdan o'tadi va ro'yxatdan o'tkazish sahifasida kerakli bo'limlarni to'ldiradi (mijoz turi, shaxsiy axborot, aloqa bog'lash uchun ma'lumotlar). Yakka tartibda tadbirkor va rezident tizimda faqat elektron raqamli imzo yordamida ro'yxatdan o'tishlari mumkin;
 - ro'yxatdan o'tkazish jarayoni tugaganidan so'ng hisob-kitob kliring palatasida Ishtirokchi uchun shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi. Ishtirokchilar elektron davlat xaridlarida hisob-kitob kliring palatasidagi o'z shaxsiy hisobvaraqlarida yetarlicha avans to'lovi summasi mavjud bo'lgan holatda ishtirok qiladilar;
 - tender shartlari bilan batafsil tanishib chiqqanidan so'ng Ishtirokchi elektron tenderda ishtirok qilish uchun ariza beradi va "Tovarlar va predmetlar", "Talablar" bo'limlarida "Umumiy axborot" sahifasida kerakli axborotni to'ldiradi. Talablar bo'limida ma'lumot kiritish jarayonida ishtirokchidan biror bir talab bo'yicha tasdiqlovchi hujjat so'ralgan bo'lsa, hujjatni fayl ko'rinishida yuklash zarur.

- 5.3 Korporativ Buyurmachi tomonidan elektron tender o'tkazilishida:

Ishtirokchilar tomonidan zakalat pulini to'lash zarurati va uning miqdori korporativ Buyurmachi tomonidan

- belgilanadi, shuningdek to'langan zakalat puli elektron tender g'olibi bilan shartnoma tuzilgungacha Operator tomonidan blokirovka qilinadi.
- 5.4 Ishtirokchi tomonidan taklif ta'minoti summasining to'lovi talab qilinmaydi va 1 (bir) ish kuni mobaynida zakalatnida ta'minot to'g'risida hujjat qaytariladi yoki quyidagi hodisalardan biri yuz berganidan so'ng uning qaytarilishi ta'minlanadi:
- taklif ta'minotining amal qilish muddati tugashi;
 - davlat xaridlari to'g'risida shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnoma ijrosi ta'minotining taqdim qilinishi; elektron tenderning bekor qilinishi;
 - takliflarni yuborish yakuniy muddati tugagunigacha taklifning qaytarib olinishi.
- 5.5 Operator elektron tender natijasida shartnoma tuzilganidan so'ng, bir ish kuni davomida zakalatni banddan yechadi va uni ijrochining tegishli shaxsiy hisob raqamiga qaytaradi. Portal, elektron tenderning yakunlariga ko'ra, bitimning haqiqiy summasidan operatorning vositachilik yig'imini ishtirokchining avans to'lovlaridan ushlab qoladi. Ishtirokchilarning bandi bekor qilingan pul mablag'lari, ularning topshiriqlariga asosan boshqa elektron davlat xaridlarida avans to'lovlari sifatida foydalanilishi mumkin yoki xizmat ko'rsatadigan banklardagi ularning hisob raqamlariga qaytariladi.

6. Tenderda ishtirok qilish va taklif ta'minotini taqdim qilishning qo'shimcha tartibi

- 6.1 Tenderda ishtirok qilish uchun Ishtirokchi elektron platformadagi e'longa asosan kafolat amal qilish davrida 3% miqdorda zakalat puli shaklida taklif ta'minoti kafolatini taqdim qilishi kerak. Ushbu zakalat puli Ishtirokchilarga mazkur platforma shartlariga asosan qaytariladi.
- 6.2 Ishtirokchilar zakalat puli O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida to'lanadi.
- 6.3 Zakalat puli bilan ta'minlanmagan takliflar ko'rib chiqilmaydi.
- 6.4 Tender ishtirokchilari zakalat pullari mazkur platforma shartlariga asosan qaytariladi (Tender G'olibi bundan mustasno).
- 6.5 Tender G'olibining zakalat puli Buyurtmachi bilan tender yakunlari bo'yicha tuzilgan shartnoma imzolangungacha Buyurtmachi ixtiyorida bo'ladi, shundan so'ng 10 (o'n) bank kuni mozakalatnida qaytariladi.
- 6.6 Tender ishtirokchisiga / Tender g'olibiga zakalat puli quyidagi holatlarda qaytarilmaydi:
- agar Ishtirokchi Tender g'olibi deb topilgan, biroq Buyurtmachi bilan tegishli shartnoma imzolanishini rad qilsa yoki imzolay olmasa.
- 6.7 Buyurtmachi quyidagi hodisalardan biri yuz berganidan so'ng zakalat puli to'lovini talab qilmaydi yoki uning qaytarilishini ta'minlaydi:
- Ishtirokchi Tender g'olibi deb topilmagan holatda;
 - tender yakunlari bo'yicha tuzilgan shartnoma kuchga kirishi va ushbu shartnoma ijrosi ta'minotining taqdim

qilinishi, agar tender shartlarida bunday ta'minot talab qilinsa;

- tenderning bekor qilinishi;
- takliflarni yuborish yakuniy muddati tugagunigacha taklifning qaytarib olinishi.

7. Tender takliflarini baholash tartibi

- 7.1 Muayyan xarid komissiyasi tomonidan elektron tender o'tkazilishida elektron tizim avtomatik rejimda Ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tender takliflarini o'z ichiga olgan elektron hujjatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim qiladi. Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan fayllar uning tender taklifida qayd etilgan ma'lumotlarga muvofiq bo'lishi, shuningdek Ishtirokchi tomonidan elektron tizimning elektron maydonlari to'ldirilishi kerak. Elektron tizim Ishtirokchi tomonidan taklif qilgan narxlarning boshlang'ich narxga muvofiqligini, elektron maydonlar to'ldirilganligi yoki to'ldirilmaganligini va biriktirilgan fayllar mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif qilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lgan, shuningdek to'ldirilmagan elektron maydonlar yoki to'liq biriktirilmagan fayllar mavjud bo'lgan holatlarda, tizim rad qilish sabablari ko'rsatilgan holda Ishtirokchining tender taklifini rad qiladi. Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning uning tender taklifida qayd etilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasi mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarni ishtirokchining tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining topshirig'iga asosan ishchi guruh tomonidan amalga oshirilishi mumkin.
- 7.2 Tender takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:
tender taklifining tender hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish; ishtirokchining malaka talablarga (tender hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa) muvofiqligini baholash; tender taklifining narx qismini baholash.
Bunda elektron tizim tender taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tender taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so'ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi.
- 7.3 Elektron tender ishtirokchilari tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar ro'yxati mazkur Yo'riqnomaga 1-sonli ilovada taqdim qilingan (1, 2, 3, 4, 5, 6-sonli shakllar).
- 7.4 Tender takliflarini baholash va tender g'olibini aniqlash tender hujjatlarida belgilangan ketma-ketlik, tartib, mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi (1-sonli Ilova).
- 7.5 Tender hujjatining 1-ilovasida ko'rsatilgan hujjatlar ishtirokchi tomonidan aynan tender hujjat ilovasida ko'rsatilgan shaklda va to'liq taqdim etilishi shart, ishtirokchining ushbu mezonlar bo'yicha tender hujjati ilovasida ko'rsatilgan shakllarga muvofiq bo'lmagan boshqa

shaklarda va/yoki qisman taqdim etgan malaka hujjatlari inobatga olinmaydi.

7.6 Ishtirokchi quyidagi holatlarda tenderda ishtirok qilishdan chetlashtiriladi:

- Insofsiz ijrochilar yagona reestrda Ishtirokchi to'g'risida yozuv bo'lgan holatda;

- soliqlar va yig'imlar to'lovi bo'yicha muddati kechiktirilgan qarzdorlik yoki 2-kartoteka bo'yicha qarzdorlik bo'lgan holatda;

- unga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy qilingan holatda;

- Ishtirokchi tender hujjatlarining malakaviy, texnik va tijorat talablariga javob bermagan holatda;

- Ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisining har qanday harakatlarni amalga oshirishiga, qarorlar qabul qilishiga yoki har qanday tender tartib-taomillari qo'llanishiga ta'sir etish maqsadida davlat buyurtmachisi yoki boshqa davlat organining har qanday joriy yoxud sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shaklda mukofot puli berilishini, ishga yollanishini yoki har qanday boshqa qimmatbaho buyum yoki xizmatni bevosita yoki bilvosita taklif qilgan, bergan yoki berishga rozilik bildirgan holatda;

- Ishtirokchi raqobatchilikka qarshi harakatlarni amalga oshirgan yoki qonun hujjatlari talablari buzilgan holda manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lgan holatlarda, shuningdek Ishtirokchilar o'rtasida affillanganlik belgilari aniqlangan holatlarda;

- Ishtirokchi tomonidan korrupsiya xatti-harakatlariga yo'l qo'yilmasligi to'g'risida ariza taqdim qilinmagan holatda;

- Ishtirokchida shartnoma tuzish uchun qonuniy huquq bo'lmagan holatda;

- tender ishtirokchisi tomonidan taqdim qilingan hujjatlardagi axborotning noto'g'riligi aniqlangan holatda;

- Ishtirokchilar belgilangan muddatda kerakli hujjatlar paketini taqdim qilmagan yoki o'z muddatida taqdim qilingan hujjatlar paketi tender hujjatlari talablariga javob bermagan holatda;

- tegishli ro'yxatga asosan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 12 iyunda 2467-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Davlat Soliq qo'mitasi, Davlat Bojxona qo'mitasi va Markaziy bank qaroriga Ilova, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020 yil 12 oktabrda 2467-3-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar) tender ishtirokchisi (yoki Ishtirokchi banki yoxud uning ta'sischilari yoki uning rahbarlari) imtiyozli soliq rejimi taqdim qilinadigan va (yoki) moliya operatsiyalarini o'tkazishda axborot oshkor qilinishi va taqdim qilinishi nazarda tutilmaydigan davlatlar yoki hududlarda (offshor zonalarda), shuningdek boshqa taqiqlangan hududlarda ro'yxatdan o'tkazilgan yoki sanksiya ro'yxatlariga kiritilgan holatda.

Ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to'g'risidagi qaror va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari haqidagi bayonnomaga (hisobotga) kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.

- 7.7 Tender taklifi Qonun va tender hujjatlari talablariga javob bergan holatda tegishli rasmiylashtirilgan deb e'tirof qilinadi. Xarid komissiyasi mas'ul kotibining Ishtirokchining tender taklifini tegishli rasmiylashtirilgan yoki tegishli rasmiylashtirilmagan deb e'tirof qilish to'g'risida sabablari asoslangan qarori Xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Ishtirokchi tender taklifining tegishli talablarga javob bermasligi to'g'risida qaror, bunday qarorning sabablari qayd etilgan holda, bunday qaror qabul qilingan kunda Ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.
- 7.8 Tender takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasi elektron tender ishtirokchilaridan ularning tender takliflari yuzasidan izohlarni talab qilib olishi mumkin. Ushbu tartib-taomil elektron shaklda o'tkaziladi. Izohlash jarayonida taklif mazmun-mohiyati, shuningdek narx bo'yicha biron-bir o'zgartishlarga yo'l qo'yilmaydi.
- 7.9 Tender ishtirokchilari takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati tender takliflarini berish tugagan paytdan e'tiboran 45 (qirq besh) ish kunidan oshishi mumkin emas.

8. Elektron tenderda ishtirok qilish uchun taklif berish

- 8.1 Tenderda ishtirok qilish uchun taklif davlat tilida yoki rus tilida, shuningdek zarur hollarda, davlat tiliga yoki rus tiliga tarjima qilingan holda boshqa tillarda tuziladi. Boshqa tillarda taqdim etilgan takliflar o'zbek yoki rus tillariga tarjima qilinishi lozim (ishtirokchilarning texnik taklifidagi texnik atamalardan tashqari). Bu holda tarjima qilingan hujjat haqqoniy deb hisoblanadi. Boshqa tillarda taqdim etilgan hujjatlar inobatga olinmaydi va ishtirokchi chetlashtiriladi. Barcha hujjatlar ishtirokchining vakolatli shaxsi imzosi va muhri bilan taqdim etilishi talab etiladi.
- 8.2 Elektron tender o'tkazilishida Ishtirokchilar o'z tender takliflarini elektron tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa belgilangan muddatdan kechikmay o'z shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda taqdim qiladilar.
- 8.3 Tender taklifi bilan birga Ishtirokchilar xomaki nusxalar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayllar shaklida joylashtirishlari mumkin*.
**Agar davlat xaridi shartlarida Ishtirokchilar tomonidan xarid ob'ekti hisoblangan tovar nusxalari, namunalarini taqdim qilish nazarda tutilgan bo'lsa, Xarid komissiyasi ularning Ishtirokchilar tomonidan taqdim qilinishi alohida tartibini belgilaydi.*
Bunda, Ishtirokchilarning tender takliflari elektron tizimdagi shablonlarga asosan hujjatlarni biriktirish orqali taqdim qilinadi. Ishtirokchi tomonidan qayd etilgan ma'lumotlar biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga muvofiq bo'lishi kerak.
- 8.4 Tender takliflarini ochish muddati kelgungacha ularning elektron tender ishtirokchilari, shu jumladan Xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yilmaydi, ushbu takliflarni taqdim qilgan Ishtirokchi bundan mustasno. Ushbu talab bajarilishi uchun operator javobgar bo'ladi.
- 8.5 Elektron tender ishtirokchisi:

- faqat bitta tender taklifini berishga haqli;
- taqdim qilinadigan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi;
- tender takliflarini berish tugaydigan muddatgacha taqdim qilingan tender taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartishlar kiritishga haqli;
- tender hujjatlarida belgilangan shakllarga asosan kafolat xatini (1-shakl), kontragent mulki tuzilishini (2-shakl), korrupsiya xatti-harakatlariga yo'l qo'yilmasligi to'g'risida arizani (3-shakl), mazkur tender shartlariga analogik ishlarni bajarish tajribasi to'g'risida ma'lumotlarni (4-shakl), tender ishtirokchisi to'g'risida umumiy axborotni (5-shakl), texnik taklifni (6-shakl) taqdim qilishi kerak. Aks holda, Ishtirokchining malakaviy hujjatlari mazkur mezon bo'yicha qabul qilinmaydi;

Ishtirokchilar tomonidan taqdim qilingan malakaviy hujjatlar tender e'lon qilingan sanadan so'ng rasmiylashtirilishi kerak yoki ularning amal qilish muddatlari tugaman bo'lishi kerak (soliq organlari yoki boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan axborot).

- 8.6 Joylashtirilgan e'londa belgilangan muddat va vaqt boshlangan paytdan e'tiboran elektron tizim tomonidan tender takliflarini qabul qilish to'xtatiladi.
- 8.7 Ishtirokchining texnik taklifi quyidagi hujjatlarni o'z ichiga olishi kerak:
- mazkur Yo'riqnomaga ilova qilinadigan 6-sonli shaklga asosan texnik taklif va taklif qilinadigan tovar (ishlar, xizmatlar) uchun texnik tavsiflarning qiyosiy jadvali;
- 8.8 Ishtirokchining narx taklifi elektron tizimning tegishli bo'limiga kiritiladi. Narx taklifi ochiq taqdim etgan ishtirokchilar tenderdan chetlashtiriladi.

9. Tender takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirish

- 9.1 Zarur bo'lgan hollarda, Buyurtmachi barcha Ishtirokchilarga joriy qilinadigan tender takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirishi yoki Ishtirokchilarga Xarid komissiyasi qaroriga binoan muayyan davrga ularning tender takliflari amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida taklif bilan murojaat qilishi mumkin.
- 9.2 Buyurtmachi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tenderda ishtirok qilish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanagacha 1 (bir) ish kunidan kechikmay tender hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.
- Tovar (ishlar, xizmatlar) nomini o'zgartirish mumkin emas. Bunda, ushbu tenderda ishtirok qilish uchun takliflar berish tugaydigan muddat tender hujjatlariga o'zgartishlar kiritilgan sanadan e'tiboran 10 (o'n) ish kunidan kam bo'lmagan muddatga uzaytirilishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa qayd etilgan axborot o'zgargan bo'lsa, tender o'tkazilishi to'g'risida e'lona o'zgartishlar kiritiladi.

10. Elektron tender

natijalarini sarhisob qilish

- 10.1 Tender hujjatlarida belgilangan shartlarga qarab, elektron tizim avtomatik rejimda: tender takliflari texnik qismini baholash natijalari bo'yicha elektron tenderda kelgusi ishtirok qilishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasida eng kichik narxni taklif qilgan Ishtirokchini g'olib sifatida belgilaydi. Zaxira ijrochini aniqlash mazkur bandeda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
- 10.2 Quyidagi holatlarda tender o'tkazilmagan deb e'tirof qilinadi:
- tenderda bir Ishtirokchi ishtirok qilgan yoki hech kim ishtirok qilmagan holatda;
- texnik baholash bosqichida Xarid komissiyasi barcha takliflarni rad qilgan yoki faqat bir taklif tender hujjatlari talablariga javob bergan holatda.
Bunday holatda, Buyurtmachi tender hujjatlarida belgilangan shartlarda, tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun mezonlar va talablarga asosan elektron tenderni takroran o'tkazishi mumkin.
- 10.3 Tender takliflarini ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha xarid komissiyasi kotibi tizimdagi mavjud shablonlar asosida xarid komissiyasi yig'ilishlarining elektron bayonnomalarini tuzadi va ularni tender komissiyasi a'zolariga tasdiqlash uchun yuboradi.
Xarid komissiyasi a'zolari o'z elektron raqamli imzolaridan foydalanib yig'ilishlarning elektron bayonnomalarini tasdiqlaydilar. Elektron bayonnomadan ko'chirma avtomatik rejimda portalda e'lon qilinadi.
- 10.4 Elektron tenderning har qanday ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng Buyurtmachiga tender natijalari izohlarini taqdim qilish to'g'risida talabnoma yuborishga haqli.
Bunday talabnoma tushgan sanadan e'tiboran 3 (uch) ish kuni mozakalatnida Buyurtmachi chat orqali tender ishtirokchisiga tegishli izohlarni taqdim qilishi shart.

11. Boshqa shartlar

- 11.1 Elektron tender ishtirokchisi tender takliflarini berish muddati tugaydigan sanagacha 2 (ikki) ish kundan kechikmay Buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tender hujjatlari qoidalarini izohlarini berish to'g'risida talabnomani yuborishga haqli. Agar qayd etilgan talabnoma Buyurtmachiga tender takliflarini berish muddati tugaydigan sanagacha 2 (ikki) ish kundan kechikmay tushgan bo'lsa, ushbu talabnoma tushgan sanadan e'tiboran 2 (ikki) ish kuni mozakalatnida Buyurtmachi ochiq elektron chat orqali tender hujjatlari qoidalarini izohlarini yuborishi shart. Tender hujjatlari qoidalarining izohlari ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.
- 11.2 Elektron tender ishtirokchisi tender takliflarini berish muddati tugaydigan sanagacha taqdim qilingan tender taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartishlar kiritishga haqli.
- 11.3 Buyurtmachi g'olib taklifi akseptigacha istalgan vaqtda tenderni bekor qilishga haqli. Buyurtmachi tender bekor

qilingan holatda, bunday qaror qabul qilinganidan so'ng 3 (uch) ish kuni mobaynida elektron tizim orqali maxsus axborot portalida ushbu qarorning asoslangan sabablarini e'lon qiladi.

12. Shartnoma tuzish

- 12.1 Elektron tenderni o'tkazish natijalari bo'yicha shartnoma g'olib e'lon qilingan paytdan e'tiboran 10 (o'n) ish kunidan kechikmagan muddatda tender hujjatlarida va g'olib tender taklifida belgilangan shartlarda tuziladi.
- 12.2 Tender g'olibi shartnoma tuzishni rad qilgan holatda, zakalat puli summasi unga qaytarilmaydi hamda shartnoma tuzish va ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar ijro huquqi zaxira g'olibga o'tadi. Bunda, zaxira g'olib bilan shartnoma g'olib tomonidan taklif qilingan narx bo'yicha tuziladi (zaxira g'olib tomonidan taklif qilingan narx g'olib tomonidan taklif qilingan narxdan pastroq bo'lgan holatlar bundan mustasno) yoki u shartnoma tuzishni rad qilishi mumkin. Agar zaxira g'olib aniqlanmagan yoki zaxira g'olib shartnoma tuzishni rad qilgan bo'lsa, Buyurtmachi yangi elektron tender o'tkazadi.

“Yangiyo'l-Agro Star” MCHJ direktori:

X.Akramov

Kelishilgan:

Buxgalter:

D.Yusupjanov

**Tender hujjatining
1-sonli ilovasi**

TANLASH ISHTIROKCHILARI VA TAKLIFLARNI BAHOLASH MEZONLARI

Xarid komissiyasi tanlashni amalga oshiradi. Agar tanlash ishtirokchisi tomonidan talab qilingan ma'lumotlar taqdim etilmagan bo'lsa, xarid komissiyasi uni tanlashda ishtirok etishdan chetlashtiradi.

***Eng past narx usuli** - texnik baholashdan o'tgan va eng past narxni taqdim etgan ishtirokchi g'olib hisoblanadi.*

BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Mezonlar	Baholashga bo'lgan talab	Izoh
1.	Davlat ro'yhatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat. (davlat ro'yhatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi).	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) – 10 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa ishtirokchi chetlashtiriladi.
2.	Ishtirokchining kafolat xati (1-shakl bo'yicha).	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) – 10 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa ishtirokchi chetlashtiriladi.
3.	Ishtirokchining korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi arizasi (3-shakl).	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) – 10 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa ishtirokchi chetlashtiriladi.
4.	Ishtirokchining issiqxona kompleklarini yetkazib berish bo'yicha ish tajribasi to'g'risidagi ma'lumot (ma'lumot xati 4-shakl va tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari: shartnoma yoki hisob faktura yoki qabul qilish topshirish dalolatnomalari).	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) – 20 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa ishtirokchi chetlashtiriladi.
5.	Tanlash ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumot (5-shakl).	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) – 10 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa ishtirokchi chetlashtiriladi.
6.	Soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (vakolatli organ tomonidan berilgan ma'lumotnoma yoki kafolat xati).	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) – 10 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa ishtirokchi chetlashtiriladi.
7.	Ishtirokchining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki me'yoriy hujjat yoki veb-saytning mavjudligi to'g'risida ma'lumot. (Hujjat nusxasi yoki veb-sayt havolasi).	Afzalroq	Taqdim qilinganda (to'liq) – 10 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa 0 ball. Ishtirokchi chetlashtirilmaydi.
8.	Ishtirokchining texnik taklifi (texnik taklif va qiyosiy jadvalning 6-shakli) taklif etilayotgan uskuna va uning muvofiqligini ko'rsatish texnik shartlarga muvofiq, shuningdek, boshqa zarur texnik ma'lumotlar va ma'lumotlar jadvallari).	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) – 10 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa ishtirokchi chetlashtiriladi.
9.	Ushbu tender issiqxona kompleksi yetkazib berish uchun ishlab chiqaruvchi yoki uning vakolatli vakili tomonidan ishtirokchiga berilgan ishonchnoma yoki ma'lumot xati (tender loti raqamini ko'rsatgan holda)	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) – 10 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa ishtirokchi chetlashtiriladi.

10.	Ishtirokchining issiqxona kompleksi o'rnatish, ishga tushirish bo'yicha mutaxassis mavjudligi to'g'risida ma'lumot. (mutaxassis hamda ishtirokchi o'rtasidagi mehnat munosabatlarini tasdiqlovchi hujjat).	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) – 10 ball Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa ishtirokchi chetlashtiriladi
11.	Taqdim etilgan uskunani ishlab chiqaruvchidan 1 yil davomida texnik xizmat ko'rsatish mavjudligini tasdiqlovchi kafolat xati.	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) – 10 ball Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa ishtirokchi chetlashtiriladi

Malakaviy va texnik mezonlar bo'yicha eng yuqori (maksimal) ball: 120 ball.

Narx bosqichiga o'tish bali: 110 ball.

III- BO‘LIM. NARX QISMI

1	Boshlang‘ich narx	4 758 690 000(<i>to‘rt milliard yetti yuz elik sakkiz mlion olti yuz to‘qson ming</i>) so‘m (<i>mahalliy yetkazib beruvchilar uchun</i>); 374 700 (<i>uch yuz yetmush to‘rt ming yetti yuz</i>)AQSH dollr (<i>Xorijiy yetkazib beruvchilar uchun</i>)
2	Moliyalashtirish manbai	Buyurtmachining o‘z mablag‘lari
3	To‘lov shartlari	
3.1	Mahalliy ishtirokchilar uchun	Tovar summasining 15 foizi miqdorida oldindan to‘lov, summaning qolgan 85 foizi tovar buyurtmachi hududiga yetkazib berilganidan va 10 (o‘n) bank kuni mozakalatnida barcha kerakli hujjatlar taqdim qilinganidan so‘ng amalga oshiriladi. Bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolanganidan so‘ng 100% xizmatlar uchun to‘lov amalga oshiriladi.
3.2	Xorijiy ishtirokchilar uchun	Ushbu shartnoma bo‘yicha tovarlarni etkazib berish bo‘yicha to‘lovlar quyidagicha amalga oshirilishi kerak: tovar qiymatining 30 foizi oldindan, 65 foizi yukni jo‘natish uchun barcha kerakli yuklash hujjatlari taqdim etilgandan keyin, qolgan 5 foizi esa ishga tushirilgandan va ishlab chiqaruvchi tomonidan etkazib berilgan hajmdagi uskunaning ishlashini ta‘minlash bo‘yicha ishlar to‘plamini o‘rnatishni nazorat qilgandan keyin. Barcha to‘lovlar INCOTERMS 2010 ga asosan amalga oshiriladi.
4	To‘lov valyutasi	
4.1	Mahalliy ishtirokchilar uchun	O‘zbekiston Respublikasi milliy valyuta so‘m
4.2	Xorijiy ishtirokchilar uchun	Tender taklifi taqdim etilgan xorijiy valyutada
5	Ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish shartlari va joyi	Manzil: Toshkent v. Yangiy’l tumani Bunyodkor MFY
5.1	Mahalliy ishtirokchilar uchun	Tanlash ishtirokchisi yetkazib beriladigan tovarning va bajariladigan ishlarning barcha talab qilinadigan xajmini taqdim etishi kerak. Manzil: Toshkent v. Yangiyo‘l tumani Bunyodkor MFY
5.2	Xorijiy ishtirokchilar uchun	Tanlash ishtirokchisi yetkazib beriladigan tovarning va bajariladigan ishlarning barcha talab qilinadigan xajmini taqdim etishi kerak. Manzil: Toshkent v. Yangiyo‘l tumani Bunyodkor MFY
6	Ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish muddatlari	Shartnoma tuzilgan sanadan e‘tiboran eng ko‘pi bilan 60 (olmush) kun.
7	Tender taklifining amal qilish muddati	Takliflarni qabul qilish tugagan paytdan e‘tiboran eng kamida 15(o‘n besh) kun.